

TRANSPORT SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGNING TUTGAN O‘RNI

Raxmatullayeva Sadokat Kamuljonovna

Urganch innovatsion universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi
E-mail: uriu@urgiu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18982875>

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport sohasida raqamli marketingning tutgan o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va foydalanish zaruriyati asoslangan. Shuningdek, transport sohasida raqamli marketingning tutgan o‘rnini tadqiq qilishga qaratilgan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Transport, soha, marketing, raqamli marketing, mijoz, xizmat, korxon.

Аннотация. Данная статья посвящена роли цифрового маркетинга в транспортном секторе, его специфике и необходимости его использования. В ней также представлены выводы, сделанные на основе изучения роли цифрового маркетинга в транспортном секторе.

Ключевые слова Транспорт, сектор, маркетинг, цифровой маркетинг, клиент, обслуживание, предприятие.

Abstract. This article is based on the role of digital marketing in the transport sector, its specific features and the need for its use. It also presents conclusions aimed at studying the role of digital marketing in the transport sector.

Key words. Transport, sector, marketing, digital marketing, customer, service, enterprise.

Raqamli marketing onlayn platformalar orqali brendni rivojlantirish, mijozlarni jalb qilish va ular bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish jarayonidan iborat bo‘ladi. Bu borada transport sohasida raqamli marketing ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari, kontent, elektron pochta, mobil va onlayn reklama marketingi kabi guruhlarga ajratiladi. Ushbu raqamli marketingning ustunligi natijalarni aniq o‘lchash maqsadli sohada auditoriyani aniqlash va xarajatlarni optimallashtirishga qaratiladi. Chunki, transport sohasi tarkibiga avtomobil, temir yo‘l, havo, dengiz va daryo transporti hamda logistika va ekspeditorlik xizmatlari kiradi. Ushbu sohada xizmatlar ko‘p hollarda tezkorlik, ishonchlilik va xavfsizlik omillariga bog‘liq bo‘ladi. Raqobatning kuchayishi esa transport korxonalaridan marketingning zamonaviy usullarini qo‘llashni talab etadi. Transport sohasining turi bo‘lgan temir yo‘l transporti sohasida ham tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish sohasida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish bosqichlari o‘rganilib, ushbu sohada marketing tadqiqotlari o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [1]. Bu esa ushbu sohada raqamli marketingni qo‘llashga qaratilgan qator yondashuvlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlarda transport korxonalari uchun raqobati o‘sayotgan davrda iste‘molchilar talabini o‘z vaqtida qondirish, aholiga sifatli va arzon narxlarda xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash jarayonlarini yanada takomillashtirishda marketing tadqiqotlarining natijalari ko‘rib chiqilgan [2]. Transport korxonalari ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama orqali o‘z xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazadi. Bu brend imijini mustahkamlash va yangi mijozlarni jalb qilishga imkon beradi. Bu holatda raqamli marketing transport xizmatlarini onlayn sotish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

So‘nggi yillarda texnologik yutuqlar va iste‘molchilar talablarining o‘zgarishi tufayli transport sektori tez o‘zgardi. Natijada, ushbu sektordagi marketing strategiyalarining raqobatbardosh bo‘lib qolish uchun moslashishi va innovatsiyalarga muhtoj bo‘ldi. Bu bo‘yicha tadqiqotlarda transport sektori uchun turli marketing yangiliklari, jumladan, raqamli marketing usullari, mijozlar bilan ishlash strategiyalari va ma‘lumotlar tahlilidan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan [3].

Veb-saytlar va mobil ilovalar orqali chiptalarni bron qilish, yuk tashish buyurtmasini rasmiylashtirish va to‘lovlarni amalga oshirish mumkin. Ushbu jarayon xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Chat-botlar, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor xabar almashish platformalari orqali korxonalar mijozlar savollariga tezkor javob beradi. Bu esa xizmat sifatini oshiradi. Shu bois, raqamli marketing vositalari yordamida mijozlar xatti-harakati o‘rganiladi, talab prognoz qilinadi va marketing strategiyasi moslashtiriladi. Jumladan, yo‘lovchi oqimi ko‘p bo‘lgan yo‘nalishlarda reklama tadbirlarini kuchaytirish mumkin.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Transport korxonalarini raqamli marketingdan foyda olish uchun ulkan imkoniyatlaridan foydalanadilar [4]. Ularning eski reklama infratuzilmasi asta-sekin raqamli infratuzilma bilan almashtirilmoqda. Jumladan, LCD displeylardagi aksiyalar va smartfon ilovalari shular qatoriga kiradi. Transport korxonasi rahbarlari mazkur o‘zgarishlarning dastlab qiymat bo‘lishini biladilar. Ammo, bu raqamli marketingdan foyda olishning yagona yo‘li bo‘lib xizmat qiladi. Undan tashqari, iste‘molchilar avtomobillarni o‘rganish, kataloglarni ko‘rib chiqish, xaridlarni amalga oshirish va sinov drayverlarini rejalashtirish uchun internetdan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar. Bu esa avtomobil biznesi raqamli marketing rejasini amalga oshirishdan foyda ko‘rishini aniq ko‘rsatmoqda.

Transport sohasida raqamli marketing tendensiyalari ham kuzatiladi. Ushbu tendensiyalar sun‘iy intellekt asosidagi reklama, Big Data tahlili, mobil ilovalar orqali marketing, geolokatsion reklama va personalizatsiyalangan takliflar hisobiga ta‘minlanadi. Bu esa innovatsion yondashuvlar transport xizmatlarini yanada samarali targ‘ib qilish imkonini beradi. Ammo, transport sohasida raqamli marketingni joriy qilishda raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi va kadrlar malakasining pastligi, kiberxavfsizlik masalalari kabi muammolar ham mavjud bo‘ladi.

Shuningdek, transport sohasida raqamli marketing narx siyosatini optimallashtirish, aksiyalar o‘tkazish va xizmatlar paketini taklif qilish orqali raqobatda ustunlik beradi. Bu borada transport sohasida raqamli marketing savdo hajmini oshiradi, mijozlar sonini ko‘paytiradi, reklama xarajatlarini kamaytiradi, brend ishonchligini mustahkamlaydi va xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi. Natijada, korxonada daromadi ortadi va bozor ulushi kengayadi. Transportda raqamli marketingni joriy etish jarayoni tizimli yondashuvni talab qiladi. Avvalo, bu borada korxonalarda raqamli infratuzilmani shakllantirish, malakali mutaxassislarini tayyorlash va kiberxavfsizlikni ta‘minlash zarur. Ushbu marketing strategiyasi umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirilishi kerak.

Umuman olganda, transport sohasida raqamli marketingni joriy etish xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, bozor raqobatbardoshligini mustahkamlaydi va korxonalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Kelajakda aqlli transport tizimlari, sun‘iy intellekt va personalizatsiyalangan marketing yechimlari ushbu sohaning yanada samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, raqamli marketing transport sohasining zamonaviy rivojlanishida muhim yangi unsur hisoblanadi. Ushbu soha xizmatlarini targ‘ib qilish, mijozlar bilan samarali muloqot qilish hamda talabni prognozlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Transport korxonalarining raqamli marketing vositalaridan kompleks va tizimli ravishda foydalanishlari orqali bozor raqobatida ustunlikka ega bo‘lib, barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, raqamli marketing transport sohasida innovatsion rivojlanishning ajralmas qismi sifatida uning iqtisodiy va strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akbarov M.I., Ozatbekov Y.F. Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatini takomillashtirishda marketing tadqiqotlarini o‘rni. // Ресурсосберегающие технологии на транспорте, 2019. - 368 b.
2. G‘iyosidinov B.B. Transport korxonalarida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 4/2020 (№00048). - 293 b.
3. Должиков М.А. Инновации в маркетинге для транспортного сектора: сила цифровизации. // Вопросы студенческой науки, Выпуск №8 (84), август, 2023. - с. 66.
4. <https://www.digitechindia.co/blog/benefits-of-digital-marketing-in-the-automotive-and-transportation-sector>